

“Jizzax shahar “Oqqo’rg’onlik” MFYdagi tibbiyot birlashmasi hududida viloyat ko‘z kasalliklari shifoxonasini yangidan qurish”

1	Buyurtmachi	Jizzax viloyat hokimligi “Yagona buyurtmachi xizmati” Injiniring kompaniyasi
2	Loyixalashtirish uchun asos	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 22 yanvardagi PQ-98-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2022 yil 15 martdagi 40-sonli rayosat bayoniga asosan
3	Qurilish turi	Yangi qurilish.
4	Loyihani ishlab chiqish uchun ajratilgan mablag’	235,415 mln.so‘m
5	Moliyalashtirish manbai	Respublika byudjet mablag‘lari
6	Bosh loyihalash tashkiloti	Tender savdolari orqali aniqlanadi.
7	Loyihani ishlab chiqish muddati	Shartnomada aniqlanadi.
8	Obyektning joylashgan xududi	Jizzax shahri
9	Qurilishni boshlash muddati	2022 y.
10	Qurilishni tugallash muddati	2023 y.
11	Loyihalash navbatlari va bosqichlari	Bir bosqichda.
12	Obyektning resurslar bilan ta‘minlash	Mahalliy qurilish materiallaridan foydalanishga ustuvorlik berilishi ishchi loyihada inobatga olinsin.
13	Kurilish maydoni haqida ma‘lumot va rejalashtirish cheklovlari. Maxsus geologik va gidrogeologik xulosalari	Muhandislik qidiruv xulosasiga asosan bajarilsin. Hudud sesmikligi – 7 ball Muzlash chukurligi – 0.82 m Shamol yuki – 38 kgs/m2 Tomyopma uchun qor yuki -50 kg/m2
14	Obyektning asosiy ko‘rsatkichlari va binoning funksional maqsadiga qo‘yiladigan talablar	SHNQ 2.08.02-09 “Jamoat bino va inshootlari” SanPIN №0292-11 “Sanitarniye I pravila I normi proyektirovaniya, stroitelstva i ekspluatatsii lechebno – profilakticheskix uchrajdeniy” va boshqa meyoriy xujjatlar talablariga muvofiq loyiha ishlarini bajarish. Loyiha quyidagilar ko‘zda tutilgan: - Yangi bino qurilishi.
15	Arxitektura kurilish rejalashtirish va konstruktiv yechimlari, shartlari binoni pardoqlashga qo‘yiladigan talablar	Rejalashtirish bo‘yicha binolarning maqsadga muvofiq joylashuvi. Shamollatish tizimlari va tabiiy yoritishni xisobga olgan holda ish jarayonini texnologiyasini va funksional guruhlashtirishni hisobga olgan holda qabul qilinishi kerak. Material-xom ashyolar maksimal darajada O‘zbekiston Respublikasida ishlab chikarilgan materiallardan foydalanish kuzda tutilsin. Binoning yong‘inga chidamlilik darajasi –II Devorlar - M50 markali sement-qum qorishmali M75 markali g‘ishtdan ishlab chiqish Oraliq devorlar – g‘ishtli. Poydevor – kuyma temir-betondan klass B15 markadan kam bo‘lmagan xolda. Tomyopma chordokli – yog‘och materiallar va qalinligi 0.5mmlik profnastil listlar bilan yopilsin. <u>-Arxitekturaviy kurilish rejalashtirish va konstruktiv yechimlari:</u>

		<p>Tom – chordoqli Orayopma va tomyopma – yig‘ma ko‘p kovakli temir-beton plitadan. Issiklik izolyatsiyasi – devor va tomyopma uchun mineralvata Tom yopma materiali – qalinligi 0,5mmlik profnastil listlardan, tashqi suv yig‘ish trubali To‘siq devorlar g‘ishtdan (blokdan) – tashqi devorlar 380mm va tashqi tomondan isitgich sifatida bozalt plitalar, ichki devorlar 380 va 120, pardadevorlar – g‘ishtli. Derazalar – ikki oynali PVX profildan Eshiklar – ichki eshiklar LMDFdan(medisinskiy), tashqi eshiklar issiqlik va shovqinga tejamkor ikki oynali qalin alyumin profildan Vitrajlar – sirlangan alyumin profildan Tashqi pardoqlash: Fasadlar: sifatli materiallar bilan zamonaviy uslubda va dizaynda ishlab chikish: -Sokol – keramogranit plitkalar bilan qoplash. -Devor yuzasi yaxshilangan suvoqlash va zamonaviy travertin turida pardoqlash -Eshik va derazalar individual Ichki pardoqlash: -Devor yuzasi yaxshilangan suvok, shiftlarni tekislab, emulsiya va yog‘li bo‘yoq bilan bo‘yash. Operasiya va muolaja xonalari shiftgacha, bundan tashqari hojatxonalar(санузлы) 1,8 metr balandlikda keramik plitkalar bilan qoplash Pollar: - keramogranit plitkalar bilan qoplash -qinligi 2,0mmdan kam bulmagan linoleum (relin) bilan qoplash</p>
17	<p>Konstruktraviy yechimlar yuk kutaruvchi konstruksiyalar materiallariga qo‘yiladigan asosiy talablar</p>	<p>Loyihalash va konstruktiv yechimlarda zamonaviy loyihalash va qurilish tajribasini hisobga olish kerak. -Barcha konstruksiya va materiallar mavjud standartlar va texnik shartlarga mos kelishi va ekologik toza materiallardan tayyorlanishi kerak. -Loyhani ishlab chiqishda materiallarga tasirini hisobga olgan holda texnologik yechimlarni qo‘llash kerak. -Tanlashda memoriy jixatdan texnologik va energiya tejamkor zamonaviy dizayn va texnologiyalardan foydalanishga etibor qaratish kerak. -Loyiha qarorlarini amalga oshirishda maxalliy ishlab chiqarishning muqobil energiyatejamkor manbalaridan foydalanish kerak. -Binolar konstruksiyalarini favqulotda vaziyatlarga, shu jumladan yongin va zilzilalarda progressiv buzilishlardan ximoyasini ta‘minlashini ko‘zda tutish zarur. Loyihada quyidagilar ko‘zda tutilishi kerak: -poydevorlar – quyma temir-beton; -konstruktiv sxema- pishiq g‘ishtdan qilingan materiallar bilan to‘ldirilgan quyma temir-beton karkas; -tashqi devorlarning qalinligi issiqlik muxandislik xisob-kitoblari asosida olinishi kerak Devor qalinligi 380 mm. -orayopmalar – tayyorg‘ovakli temir-beton plitalar;</p>

		<p>-zinapoyalar – quyma yoki yigma temir-beton; -oralik devorlar –M75 markali g‘isht va namlikka chidamli gipsokorton plitalari, qalinligi 100-120 mm. Tom yopmasi-yogoch karkasli, qalinligi 0,5mmlik profnastil listlar bilan qoplangan va shamollatiladigan bo‘lishi kerak. -tomning issiqlik izolyatsiyasi – qalinligi issiqlik texnikasini xisoblash asosida - Yomg‘ir suv quvuri (vodostok) tashqi tashkil etilgan yomgir suv lotoklari va suv quvuri polimer qoplamali ruxlangan metal quvurdan. Yomg‘ir suv quvuri drenaj tizimining yer osti drenajiga rejalashtirish zarur. -Ta‘minot tarmoqlari uchun loyihaviy yechimlar maxalliy ishlab chiqaruvchilarning zamonaviy ilg‘or texnologiyalari va uskunlaridan foydalanishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.</p>
18	<p>Muxandislik va texnologik jixozlar muxandislik tarmoqlari bilan ta‘minlashni loyihaga quyiladigan asosiy talablar</p>	<p>Loyihada quyidagilar ko‘zda tutilishi kerak: Elektr tizimi: -Energiya tejash chora-tadbirlar; -binoning elektr yoritish tizimini loyihalashtirishda QMQ 2.01.05-98 va QMQ 2.04.17-98, shuningdek elektr inshootlarining amaldagi qoidalariga (PUE) muvofiq 3 ta tarmoqdan foydalangan xolda loyihalash kerak. Zazemleniye ko‘zda tutilishi elektr energiyasini xisobga olish uchun elektr energiyasini nazorat qilish va xisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimini (ASKUE) ko‘zda tutilsin. Yong‘in signalizatsiyasi – binolarni vazifasiga va meyorlarga muvofiq Isitish va shamollatish: Binoni isitish tizimini loyihalashtirishda modulli qozonxonasidan foydalanilsin. Quvur ichidagi suvning issiqlik xarorati tushishini oldini olish uchun quvurlarni issiqlik izolyatsiyasini taminlash. Radiatorlar bimetallik. Xonadagi xavo haroratini hisobini amaldagi meyoriy xujjatlar talablariga muvofiq belgilash. Ochilish oynalari bo‘lgan tabiiy shamollatish, ta‘minot va chiqindi ventilyatsiyasini o‘rnatish kerak. Loyihalashda QMQ 2.01.04-97*, QMQ 2.01.01-94, QMQ 2.04.05-97*, SHNQ 2.08-02-09* larga rioya kilish.</p> <p>Suv ta‘minoti va kanalizatsiya: -Texnik shart malumotlariga ko‘ra loyiha qilish Suv ta‘minoti QMQ 2.04.01-98 bo‘yicha bajarilishi kerak. 1. Ichki sovuk suv ta‘minoti polipropilen (PP) asosidagi quvurlardan iborat bo‘lishi kerak. Sovuq suv istemolchilariga quvur liniyalirini va ochish joylarini yotqizish devor ostida (kanallarida) yashiringan xolda amalga oshirishi va xisoblagichini inobatga olishi kerak. 2. Ichki issiq suv ta‘minoti tizimi polipropilen (PP) asosidagi quvurlardan tayyorlanishi kerak. Quvur ichidagi suvning sovishini oldini olish uchun quvurlarni issiqlik izolyatsiyasini ta‘minlash. 3. Ichki suv ta‘minoti va ichimlik suvi ta‘minotini yong‘inga qarshi suv ta‘minoti bilan ta‘minlash. Binolarda quvurlarini shaxtalarda yotqizish oraliq yopmalar ostiga va osma shiftning (podshivnim potolkom) orqasida amalga</p>

		<p>oshirilishi kerak</p> <p>4. -Texnik shart malumotlariga ko'ra loyiha qilish</p> <p>Oqava suv (Kanalizatsiya) tizimi QMQ 2.04.01-98ga muvofiq amalga oshirilishi kerak. Ichki oqava suv tarmoqli yuqori quvvat va gigiyenik xususiyatlarga ega bo'lgan PVX quvurlaridan tayorlanishi kerak. Oqava suv quvurlarini shaxtalarga yotqizish. Oqava suv tarmoqlarini tashqi oqava suv tarmog'iga ulash. Tiqilib qolishi mumkin bo'lgan joylarda oqava suv quvurlarini qayta ko'rib chiqish va tozalash imkoniyatini taminlash.</p> <p>Majmuaviy xavsizlik tizimi:</p> <p>Amaldagi me'yor va talabalarga muvofiq loyihada binoning yong'indan xabarlash va ogoxlantirish tizimi bilan jixozlanishi nazarda tutilishi kerak.</p> <p>Yong'in uchirish tizimi:</p> <p>Loyihalashtirishda amaldagi me'yorlar "Yong'indan ximoya qilish tizimlari. Avtomatik yong'indan xabarlash va yong'in o'chirish moslamalariga muvofik SHNQ 2.04.09-07 "Bino va inshootlar yong'in avtomatikasi" talablari asosida amalga oshirish kerak.</p> <p>Yong'in xafsizligi talablari SHNQ 2.01-04 bo'yicha bajarilishi kerak</p>
19	Energiya samaradorligi	<p>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 02.06.2011 yildagi 161-sonli qaroriga muvofiq obyektning energiya samaradorligi oshirish bo'yicha zamonaviy inovatsion yechimlarini taqdim etish. Lampalarni energiyani tejankor lampalar, zamonaviy issiqlik inovatsion metallari va ikkita kamerali oynali PVX derazalardan foydalanishini ta'minlash</p>
20	Qurilish maydonini obodonlashtirish .	<p>Binolardan holi bo'lgan va obodonlashtirish uchun mo'ljallangan qurilish maydonini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ikkinchi bosqichga qoldirilsin.</p>
21	Texnologik yechimlar va uskunalar	<p>Buyurtmachi talabiga binoan tayyorlash (obyekt umumiy rejasi asosiy binolarning ichki qismi va boshqalar) bajarilsin.</p>
22	Atrof muxitni muxofaza qilish	<p>Atrof muxitga ta'sir bayonlari (ZVOS) loyxasini ishlab chiqilsin.</p>
23	Xarakati cheklangan shaxslar uchun yashash sharoitlarini ta'minlash bo'yicha talablar	<p>SHNQ 2.07.02-07 ni xisobga olgan xolda, xarakatlanish imkoniyati cheklangan shaxslar (nogironlar va boshqalar) uchun qulay kirish yo'laklarini taminlash.</p>
24	Ko'rgazmali materiallarni tayyorlash bo'yicha talablar	<p>Loyiha hujjatlarini belgilangan tartibda barcha tegishli tashkilotlar bilan kelishish.</p>
25	Loyihalash ishlarini bajarishga qo'yiladigan talablar	<p>-loyiha hujjatlari bo'limlari, tarkibi va ularning mazmuni amaldagi me'yoriy talablarga muvofiq bo'lishi kerak; - smeta xujjatlarini tasdiqlangan standartlarga muvofiq rejalashtirilgan qurilish muddatiga to'g'ri keladigan narxlar bo'yicha muvofiq ishlab chiqish;</p> <p>Loyixa smeta xujjatlari SHNQ 1.03.01-2016</p> <p>"Korxonalar, binolar va inshootlarni kapital qurish loyiha smeta hujjatlarini tarkibi, ishlab chiqish, muvofiqlashtirish</p>

		va tasdiqlash”ga muvofiq buyurtmachiga to’rt nusxada beriladi.
26	Qurilishni tashkil etish loyihasini ishlab chiqish (POS)	O‘zbekistan Respublikasida amalda bo‘lgan meyoriy koidalarga muvofik ishlab chikilsin.

Buyurtmachi:

Jizzax viloyat hokimligi “YABX” IK bosh muhandisi:

A. Sariboyev

Sog‘liqni saqlash boshkarma boshlig‘i o‘rinbosari:

T. Ergashev

Tayyorladi:

Jizzax viloyat hokimligi “YABX” IK bo‘lim boshlig‘i:

M. Aliyev